

QANG' DAVLATI VA UNING TARIXI

Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com

Tel: +998883638090

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20389843>

Annatsiya: ushbu maqolada Qang' davlatining vujudga kelishi, tarixi, qo'shni davlatlar bilan aloqasi, boshqaruv tizmi, qo'shini tuzilishi, aholisi, mashg'uloti va davlat inqirozi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Qang', Aleksandr Makedoniyalik, yunonlar, saklar, Xitoy, Katta Xan sulolasi yilnomasi, Sirdaryo.

Qang' davlati O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan qadimgi siyosiy tuzilmalaridan biri hisoblanadi. U miloddan avvalgi III–II asrlarda shakllanib, Sirdaryo havzasi va unga tutash hududlarda yirik davlat sifatida rivojlandi. Qang' davlati nafaqat harbiy-siyosiy jihatdan, balki iqtisodiy va madaniy hayotda ham muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, uning hududidan o'tgan xalqaro savdo yo'llari Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etgan. Mazkur davlatning o'ziga xos jihati shundaki, unda ko'chmanchi va o'troq aholi unsurlari uyg'unlashgan bo'lib, boshqaruv tizimida urug'-qabila an'analari bilan markazlashgan hokimiyat unsurlari birgalikda namoyon bo'lgan. Shuningdek, Qang' davlati qo'shni davlatlar bilan olib borgan siyosiy, harbiy va iqtisodiy aloqalari orqali mintaqa tarixida muhim o'rin egallagan.

Qadimgi Xitoy manbalarida Qang' davlatining vujudga kelishi miloddan avvalgi III–II asrlarga to'g'ri kelishi haqida ma'lumotlar mavjud. Biroq Qang' davlati, ehtimol, bu davrdan oldinroq shakllana boshlagan. Qizilqum va Qoraqum cho'llarida ko'chib yurgan sak qabilalari Makedoniyalik Aleksandr davlati, Salavkiylar davlati (miloddan avvalgi 312–250-yillar) hamda Yunon-Baqtriya davlati (miloddan avvalgi 250–130-yillar) uchun doimiy ravishda shimoldan, ya'ni Sirdaryo bo'ylaridan xavf solib turgan. Jumladan, miloddan avvalgi 329–328-yillarda Maroqandani egallagach, Aleksandr Sirdaryoning shimolida yashovchi saklarni bo'ysundirish maqsadida Xo'jand yaqinida qal'a qurdirgan, biroq ularni to'liq bo'ysundira olmagan. Yunonlar bosqini xavfi sak qabilalarini birlashishga undagan. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, Qang' davlati miloddan avvalgi IV asr oxiri – III asr boshlarida shakllana boshlagan.

Qang' davlati o'z davrining barcha talablariga javob beradigan yirik davlatlardan edi. Bu davlatning asosiy negizini Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi saklar (qang'lar) tashkil etgan. Keyinchalik bu davlat tarkibiga Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida, uning shimoli-g'arbiy viloyatlarida joylashgan bir qancha boshqa qabilalar (shuningdek, assiylar, abiylar, sakaravllar) ham kirgan.[5, b - 32].

Qang' davlat tuzilmasining o'ziga xosligi, uning sharqiy mustabid tuzum jihatlarini o'zida aks ettirgan Parfiya va Kushon podsholidan farqi shunda bo'lganki, u urug'-qabila munosabatlarini o'zida saqlagan va, ehtimol, miloddan avvalgi III asrdayoq shakllangan qang'lar yetakchilari rahbarligi ostida birlashgan ko'chmanchi va yarim o'troq qabilalarning ittifoqi bo'lgan. Xitoy manbalari Qang'ni, uning hukmdorlarini nazarda tutib, ko'chmanchi o'lka deb ataydi. Avvaliga uning qudrati zaif bo'lib, janubda yuechjilar hokimiyatini tan olgan, sharqda esa xunlarga bog'liq bo'lgan edi. Lekin miloddan avvalgi I asrdan boshlab milodiy II asrgacha u barqaror hokimiyatga ega, bir necha yuz yilliklar davomida hukmronlik qilgan sulolalar boshchiligidagi qudratli davlatga

aylandi. Shu jihati bilan u ko'chmanchilarning aniq chegaraga ega bo'lmagan va doimiy harakatdagi vaqtinchalik birlashmalaridan farq qiladi.

Qabilalarning biror-bir urug' oqsoqollarining nisbatan faolroq, o'zini ko'rsata olgan vakillari atrofida oxir-oqibat birlashma yaratib jamlanishi “harbiy demokratiya” deb nomlanadigan birlashmadan butunlay farq qilardi. Ko'chmanchilarning bunday tamoyillar asosida yaratilgan birlashmalari, odatda, butun xalq tomonidan saylangan harbiy yetakchilar tomonidan boshqarilardi. Bunday yetakchilar avloddan-avlodga o'tadigan hokimiyatga ega bo'lmagan va ularning atrofida boshqaruv apparati ham shakllanmagan edi. Qang' esa yetakchi rahbarlar tomonidan emas, balki qat'iy yagona “tamg'a” (sulolaviy belgilar)dan kelib chiqib, sulolaga asos solgan qabila boshlig'i tomonidan boshqarilgan birlashmaning ilk namunalaridan biri edi.[1, b - 185-186].

Qang' haqida bizgacha yetib kelgan Katta Xan sulolasi tarixida Qang' podshosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi haqida ma'lumot beriladi. Bundan xulosa chiqargan tadqiqotchilar Qang' davlatida kengash muhim rol o'ynaganligini, davlat kengashida qabila boshliqlari va harbiy sarkardalar faol qatnashganliklarini hamda ularning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaydilar.

Davlat tashkil topgan dastlabki davrda uning hududiy asosini Toshkent vohasi tashkil etgan. Tashqi harbiy hujumlar tufayli Qang' davlati nafaqat mustahkamlanib oladi, balki o'z chegaralarini ham kengaytirib boradi. Miloddan avvalgi II asr va milodiy I asrda Qang' davlatining hududi ancha kengayib, Toshkent vohasi, O'rta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi hamda Chu daryosining quyi oqimidagi yerlarni o'z ichiga olgan.

Qang' aholisi 600 ming nafarli, 120 ming uyli bo'lgan, zarur paytda 120 ming nafar qo'shinni safga torta olgan. Qang'yular “Mahabhorat”da sak va tohar qabilalari nomlari qatorida tilga olingan. Shaharlar asosan xom g'isht va paxsa (paxsadan) qurilgan. Ularning tashqi mudofaa devorlari va istehkomli qal'asi (ark), darvozalari, burj va shinaklarining mustahkamligiga alohida e'tibor berilgan.[3, b - 110].

Arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, Qang' qo'shinlaridagi otliq suvoriylar yuechji suvoriylari kabi yubka shaklidagi burmali sovut, ko'krakka taqiladigan qalqon kiyishgan. Baland po'lat yoqalar ularning bo'ynini himoya qilgan bo'lsa, dubulg'alar boshni asragan. Qurollardan qilichlar, nayzalar, jangovar boltalar, kamon va o'qlar keng tarqalgan edi. Har bir bo'linma ajdar shaklidagi o'zining maxsus tug'iga ega bo'lgan. Demak, Qang' davlati qo'shinlarida qurollanish va harbiy san'atga alohida e'tibor berilgan.[7, b - 137].

Manbalarda Qang'uy davlati miloddan avvalgi II asr oxiri va I asr boshlarida buyuk davlat bo'lganligi hamda Xitoyga nisbatan mustaqil siyosat yuritganligi qayd etiladi. Qang'uy hatto Xitoy-Farg'ona mojarolariga ham aralashgan. Xitoy bilan Qang'uy (Qang') o'rtasidagi adovat miloddan avvalgi II asr va I asr boshlarida boshlangan edi. Xitoy ma'murlari qang'uylarning ashaddiy dushmanlari — usunlar bilan do'stona aloqa o'rnatib, g'arbga miloddan avvalgi 104-yilda Davanga qarshi birinchi harbiy yurishni boshlaydilar. Biroq bu yurish uncha muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Ular hozirgi O'zg'on shahrini egallaganidan so'ng, katta talafot ko'rib, orqaga chekinishga majbur bo'ladilar.

O'rta Osiyo xalqlari tarixida, shu jumladan o'zbek xalqi tarixida Qang' davlatining o'rni benihoya kattadir. Bu davlat hududida yashovchi qadimgi eroniy tillarga yaqin tilda so'zlashuvchi tub yerli xalqlar Janubiy Sibir, Oltoy, Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarida yashovchi turkiy tilli xalqlar bilan o'zaro yaqinlashgan. Oqibatda miloddan avvalgi III–II asrlarda Sirdaryoning o'rta oqimi hududlarida turkiy tilda so'zlashuvchi yangi etnos — xalq birligi vujudga kela boshladi. Bu

yangi etnos sekin-asta son jihatdan ko'payib, mazkur hududlarda ustun mavqega ega bo'la bordi. Natijada ular alohida qang'lar elati nomi bilan shakllandi. [4, b - 72].

Birinchi qishgi poytaxt haqida Katta Xan sulolasi tarixida “qang'lilar mamlakati podshosining turar joyi Loyuenidagi Bityan shahrida” deb ma'lumot beriladi. Boshqa tarixiy manbalarda Loyuen nomi uchramaydi, shuning uchun uning qayerda joylashganligi aniq emas. Tadqiqotchi K. Shoniyo'zov Bityan shahrini Toshkent vohasida joylashgan deb hisoblaydi. Chunki tarixiy manbalarda Yaksart (Sirdaryo) bo'yida qadimgi Kanha — Kanka shahri xarobalari mavjudligi qayd etilgan. Yu. Buryakov uzoq yillik arxeologik tadqiqotlari natijasida Kanka shahri miloddan avvalgi III–II asrlarda paydo bo'lganligini aniqlagan. Demak, manbalarda eslatilgan Bityanning tashkil topgan davri Kanka shahri paydo bo'lgan vaqtga mos keladi. Shu asosda bu nomlar bitta shaharning ikki xil nomlanishi deb qaraladi. Ushbu shahar Sirdaryoning o'ng irmoqlaridan biri — Ohangaron daryosining quyi oqimida (hozirgi Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani hududida) joylashgan.

Yozgi ikkinchi poytaxt esa Yuqorida eslatilgan Katta Xan sulolasi tarixida “Qang' podshosining yozgi qarorgohi Loyuenidan yetti kunlik yo'l masofasida joylashgan” degan ma'lumot beriladi. Shigu solnomalarida esa “Qang' hokimi qishda (sovuqda) va yozda (issiq paytlarda) bir joyda yashamagan” deb ta'kidlanadi. Bu esa yil fasllariga qarab ularning turar joylari turli hududlarda bo'lganligini ko'rsatadi. [2, b - 84].

Qang' davlatining etnik tarkibi bir xil bo'lmagan. Sirdaryoning shimolida, Toshkent vohasida qang'ar qabilalari yashagan. Qurama tog' etaklarida, Sirdaryoning yuqori oqimlarida qatarlar, kamarlar va boshqa qabilalar joylashgan. Tangritog' tizmasining g'arbida, Sirdaryo yaqinidagi cho'llarda sakaravlar, toxarlar, asiylar, ansilar, arstilar, arg'ular va boshqa qabilalar yashagan. Sirdaryo bo'ylab obih (suv skiflari) yashaganlar. Bu qabilalarning ichida eng kuchlisi va yetakchisi qang'ar qabilalari bo'lgan. Tilga olingan qabilalarning ko'pchiligi Qang' davlati tarkibida bo'lgan. Tobelikni xohlamagan qabilalar esa ularning ma'lum qismi joylarini tashlab, boshqa yerlarga ko'chib ketganlar. [6, b - 118].

Davlatning iqtisodiy hayotida savdo-sotiqning rolini e'tiborga olmaslik mumkin emas, chunki bu uning yagona siyosiy birlashma doirasidagi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Qang' orqali faol xalqaro savdo yo'llari o'tgan edi. Manbalar miloddan avvalgi II asrdan boshlab Farg'ona va Tarim havzasini Qang' va Yansay hududi orqali Volgabo'yi va Uralbo'yi mamlakatlari bilan bog'laydigan muhim savdo yo'li mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Boshqa yo'llar esa Baqtriyaga olib borgan. Tovarlarining Qang' orqali harakatini nazorat qilish, chamasi, hukmdorning muhim huquqlaridan biri bo'lgan. Bu holat Qang'ning mazkur yo'llardagi hukmronligini zaiflashtirish maqsadida Xitoy tomonidan olib borilgan qizg'in diplomatik faoliyatda ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Qang' haqidagi so'nggi ma'lumotlar milodiy 270-yillarga oid bo'lib, unda Qang' O'rta Osiyodan tashqariga o'z elchilarini yubora olgan yirik davlat sifatida tasvirlanadi. V asr manbalarida esa Qang' Eftalitlar davlati tarkibiga kiruvchi kichik o'lka sifatida qayd etiladi. [1, b . 192-193].

Xulosa qilib aytganda, Qang' davlati O'rta Osiyoning qadimgi tarixida muhim o'rin tutgan yirik siyosiy tuzilma bo'lib, uning shakllanishi ko'chmanchi qabilalarning tashqi xavf-xatarlar, ayniqsa yunonlar bosqini ta'sirida birlashuvi bilan bog'liqdir. Davlat miloddan avvalgi IV asr oxiri – III asr boshlarida shakllanib, keyinchalik siyosiy, harbiy va iqtisodiy jihatdan kuchayib, mintaqada muhim rol o'ynagan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1.Алимова Д.А., РТВеладзе Э.В. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 1-жилд. — Т.: Akademnashr, 2021. — 552 б.

2. Eshov B. O‘zbek davlatchiligi va boshqaruv tarixi – T.: 2012. – 426 b.
3. Самаров Р.С. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (Ўзбекистон ҳарбий санъати тарихи). – Т.: Маънавият, 2023. – 458 б.
4. Shamsutdinov, R., Karimov, Sh. Vatan tarixi. 1-jild. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 b.
5. Шониёзов К. Қангъ давлати ва қанглилар. – Т.: Фан, 1990. – 158 б.
6. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни– Т.: Шарқ, 2001. – 464 б.
7. Эшов Б.Ж.; Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд — Т.: 2014. — 489 б.